



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2023 - yil « 29 » avgust

396 -son

Toshkent shahri

**Oliy va o'rta maxsus ta'lif muassasalarida yangi –  
2023-2024-o'quv yilida yoshlar tarbiyasi, ularni  
qo'llab-quvvatlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldag'i "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarori, 2023-yil 27-iyuldag'i "O'zbekiston respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi PQ-241 son qarori, 2021-yil 26-martdag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda 2023-2024-o'quv yilini munosib kutib olish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligini munosib nishonlash maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi bilan hamkorlikda "**Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!**" shiori ostida tashkil etiladigan "Mustaqillik darslari"ni tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta'lif muassasalariga qabul qilingan talabalarni tabriklash bo'yicha "Talabalikka bag'ishlov" tadbirlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar 1-ilovaga;

Oliy ta'lif muassasalarida 2023-2024-o'quv yili davomida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha namunaviy ish rejasi 2-ilovaga;

Akademik litseylar va professional ta'lif muassasalarida 2023-2024-o'quv yili davomida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan namunaviy ish rejasi 3-ilovaga;

Oliy ta'lif muassasalarida psixologlar ish faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan namunaviy ish rejasi 4-ilovaga;

Ta'lim muassasalaridagi Xotin-qizlar maslahat kengashlarining 2023-2024-o'quv yilida amalga oshiradigan ishlari bo'yicha namunaviy reja 5-ilovaga;

Tyutorlar uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan namunaviy ish rejasi 6-ilovaga muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy soha vakillari (Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinosi, tyutor hamda tarbiyachi pedagog) faoliyatini o'rghanish bo'yicha reja-jadval 7-ilovaga muvofiq;

"Birinchi kurs maktabi" tadbirlarini o'tkazishga qaratilgan namunaviy dastur 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3. Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Qosimov), vazirlik huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudoyberganov) zimmasiga:**

"Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida tashkil etiladigan "Mustaqillik darslari" bo'yicha tavsiyalarni barcha ta'lim muassasalariga yetkazilishini ta'minlash;

yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishidagi faoliyatni mazkur buyruqning ilovalari bilan tasdiqlangan tavsiyalar va ish rejalar asosida tashkil etilishi hamda ta'lim muassasalarida "Mustaqillik darslari"ni yuqori saviyada o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirib borish vazifalari topshirilsin.

**4. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar, akademik litseylar direktorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari hamda professional ta'lim muassasalari direktorlariga:**

Yangi – 2023-2024-o'quv yilini puxta tayyorgarlik bilan boshlash maqsadida ta'lim muassasalaridagi yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida amalga oshiriladigan targ'ibot-tashviqot va sohaga doir boshqa tadbirlarni tashkil etish uchun zarur barcha sharoitlarni yaratib bersin;

ta'lim muassasalarida yangi o'quv yilining birinchi o'n kunligida "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mustaqillik darslari"ni vazirlik tomonidan taqdim etilgan tavsiyalar asosida sifatli tashkil etsin;

Mazkur darslarga vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tizimlarining mas'ul vakillari, taniqli olim va san'at ustalari, yozuvchi-shoirlar, fan arboblari hamda yirik tadbirkorlar, shu oliy ta'lim muassasasining muvaffaqiyatga erishgan bitiruvchilarini, mehnat faxriylari, mahalliy hokimlar, ularning o'rinosarlari, vazirlik hamda yirik korxonalar rahbarlarini mashg'ulotlar o'tkazish uchun taklif qilsin;

mustaqillik darslarida milliy g'oya targ'iboti, xalqimizning milliy yuksalish yo'lidagi maqsadlari, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasi hamda "Uchinchi Renessans", "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi tushunchalarining mazmun-mohiyati, ahamiyati

va mas'uliyatini barcha ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari, talaba-o'quvchilari va xodimlari o'rtaida keng targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar (uchrashuvlar, davra suhbatlari, treninglar, seminarlar, konferensiyalar) tashkil etishga alohida e'tibor qaratsin;

professor-o'qituvchilar tomonidan darslarning qiziqarli va sifatli o'tilishini nazoratga olsin;

"Mustaqillik darsi"ni o'tkazish va boshqa hamkorlik tadbirlarini amalga oshirish uchun tajribali va mahoratlil professor-o'qituvchilarning oliy ta'lif muassasasiga biriktirilgan maktablarga yuborsin;

**2023-yil 4-sentyabrga qadar** barcha ta'lif muassasasida yangi o'quv yili hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha ishlarni yakunlasin;

barcha auditoriyalar va ulardagi jihozlarni yangi o'quv yiliga tayyorgarlik darajasini ko'rib chiqish hamda muammolarni zudlik bilan bartaraf etsin;

barcha talabalar turar joylarini talabalarni qabul qilishga tayyor holatga keltirsin, ta'lif muassasasini zamonaviy tashqi va ichki targ'ibot vositalari bilan ta'minlasin;

**2023-yil 4-sentyabrga qadar** 2-7-ilovalardagi namunaviy ish rejalarga muvofiq ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ul rahbar xodimlar (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlar, direktorning birinchi o'rindbosarlari, akademik litseylar va professional ta'lif muassasalarining direktor o'rindbosarlari, tyutorlar, psixologlar, xotin-qizlar maslahat kengashlari raislari)ning 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejalarini ishlab chiqib tasdiqlasin va amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rindbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I.Abduraxmonov



**Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarni tabriklashga qaratilgan  
“Talabalikka bag‘ishlov” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha**

**TAVSIYALAR**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu hujjat oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarni tabriklash tadbirini (keyingi o‘rinlarda – Tadbir deb yuritiladi) tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tadbir oliy ta’lim muassasasi uchun qulay bo‘lgan vaqtda, sig‘imi ishtirokchilar soniga mos keladigan, o‘tkazilishi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish talablariga javob beradigan holda o‘tkaziladi.

**II. Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarni tabriklash  
tadbirlarini o‘tkazish tartibi**

3. Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarni tabriklash tadbiri “Talabalikka bag‘ishlov” deb nomlanib, joriy yilda noan’anaviy tarzda sentyabr oyida oliy ta’lim muassasalari tomonidan yuqori saviyada o‘tkaziladi.

4. “Talabalikka bag‘ishlov” tadbirlari oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan talabalar soni va tadbir o‘tkaziladigan elektron obyekt sig‘imidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasi, fakultetlar, bakalavriat va magistratura bosqichlari kesimida o‘tkazilishi mumkin. Bunda, tadbirlar bir kunni ikki yoki uch qismga bo‘lgan holda tashkil etiladi.

5. “Talabalikka bag‘ishlov” tadbirini o‘tkazishning ssenariysi joriy yil sentyabr oyining 10-sanasiga qadar ishlab chiqiladi va oliy ta’lim muassasasining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

6. Ssenariyda quyidagilar aks ettiriladi:

tadbir boshlovchilari o‘tiradigan xonaning bezatilishi, gullarning mavjudligi, shiorlarning joylashtirilishi;

mazkur xonada ko‘rgazmalar tashkil etilishi (bunda avvalgi yillardagi tadbirlarning fotoalbomlari va oliy ta’lim muassasasining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi ko‘rgazmali vositalar aks ettiriladi);

oliy ta’lim muassasasi tarixi va bugungi faoliyati haqida videorolik namoyish etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining ijro etilishi;

Tadbirning ochilishi;

davlat boshqaruvi organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarining tabrik so‘zлari;

oliy ta’lim muassasasi bo‘ysunuviga ko‘ra vazirlik yoki idora vakilining chiqishlari;

ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonasi yoxud muassasa vakiliga so‘z berilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar yoki Toshkent shahar hokimliklari vakillariga so‘z berilishi;

ushbu oliy ta’lim muassasasida o‘qib, ko‘p yillar tegishli sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan faxriylar yoki akademiklarning chiqishi;

oliy ta’lim muassasasini oldingi yillarda tamomlab, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sobiq talabalarning chiqishi;

ota-onalarga so‘z berilishi;

o‘qishga qabul qilingan talabalarga so‘z berilishi (shuningdek, mazkur oliy ta’lim muassasasining faxriga aylangan talabalarga so‘z beriladi);

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi vakiliga so‘z berilishi;

oliy ta’lim muassasasini mazkur yilda tamomlagan bitiruvchilar tomonidan yangi qabul qilingan talabalarga oliy ta’lim muassasasining ramziy kaliti, ramziy reyting daftarchasi (tibbiyot yo‘nalishida fonendoskop ham) va talabalik guvohnomasining topshirilishi;

yakuniy qism va boshqalar.

Ssenariy oliy ta’lim muassasasining o‘ziga xos xususiyati, ko‘p yillik an’analari va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.

7.Tadbir o‘tkazilgan kunning o‘zida (yoki ertasiga) uning tafsilotlari turli shakldagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi lozim.

### **III. Tadbirga qo‘yiladigan talablar**

8.Tadbirda rektor (direktor) shaxsan ishtirok etadi va raislik qiladi hamda dekan va guruh murabbiylari ishtirokini ta’minlaydi.

9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, turli vazirlik, qo‘mita va idoralar, ishlab chiqarish korxonalari va muassasalar rahbarlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademiklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar yoki Toshkent shahar hokimliklari vakillari, mazkur oliy ta’lim muassasasini Tadbirlar o‘tkazilayotgan yilda tamomlab, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sobiq talabalar, ushbu oliy ta’lim muassasasida o‘qib, ko‘p yillar shu sohada faoliyat olib borgan faxriylar, talabalarning ota-onalari va keng jamoatchilik vakillarining tashrifi uyushtiriladi.

11.Tadbir jarayonida oliy ta'lim muassasasining o'tgan o'quv yilidagi bitiruvchilari yutuqlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar (necha nafar bakalavr va magistr bitirdi, ulardan necha nafari qiz, necha foizi qayerlarga ishga joylashdi, necha nafari ta'limning keyingi bosqichiga o'tdi, necha nafar talaba yoki magistr turli nomdor stipendiyalar sohibi bo'ldi, talabalar safidan chiqarilganlar soni qancha) to'lig'icha o'qib eshittiriladi.

12.Tadbirda talabalikka qabul qilingan yoshlarni ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida ularni oliy ta'lim muassasasida e'lon qilingan tanlovlari g'oliblari oliy ta'lim muassasasi tomonidan qanday taqdirlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar (videorolik ko'rinishida) bilan tanishtiriladi.

13.Tadbirni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida tashkiliy ishlarga malakali mutaxassislar, taniqli san'atkorlar, shoir va yozuvchilar jalg etilishi lozim.

14.Tadbirni tashkil etish jarayonida (agar ommaviy tadbir yoki birinchi toifadagi ommaviy tadbir sifatida o'tkazilsa) Ichki ishlar organi xodimlari tomonidan jamoat tartibini saqlash, tibbiyot xodimlari tomonidan tez tibbiy yordam xizmati navbatchiligi tashkil etilishi ta'minlanadi.

#### **IV. Yakunlovchi qoidalar**

15.Oliy ta'lim muassasasining birinchi rahbari (rektori yoki direktori) tadbirni o'tkazish qoidalari va talablariga rioya qilinishining nazoratini olib boradi va shaxsan javobgar hisoblanadi.

16.Tadbir yakuni bo'yicha bayonnomma yoziladi va oliy ta'lim muassasasining Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limida saqlanadi.

Vazirlikning 2023-yil 29 08 dagi 398 -son buyrug‘iga 2-ilova

**Oliy ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yili davomida yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida amalga oshiriladigan vazifalar bo‘yicha  
NAMUNAVIY ISH REJA**

Nº	Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas’ul va ijrochilar
<b>I. MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYAVIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA DOIR TASHKILIY ISHLAR</b>			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida bildirilgan fikrlar va ularning yoshlar ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini yoritib berish bo‘yicha “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida taniqli olimlar, mutaxassislar ishtirokida targ‘ibot ishlarini tashkil etish. “Mustaqillik darsi”ni o‘tkazish.	2023-yil sentyabr	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
2.	1-kursga qabul qilingan talabalarni OTMdagi mavjud shart-sharoitlarga moslashtirish jarayonini (tashkil etish bo‘yicha: “1-kurs maktabi” tadbirlarini o‘tkazish (dars-mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtarda); Talabalikka qabul qilinganlarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; talabalarga tyutorlarni biriktirish, tyutorlarni uslubiy materiallар bilan ta’minlash.	2023-yil sentyabr reja asosida	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
3.	“Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yishda tyutorlarning o‘rnini va roli” mavzusida o‘quv-seminarlar tashkil qilish.	2023-yil sentyabr Har chorakda	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
4.	OTM pedagogik jamoasida umummilliy madaniyatni oshirish maqsadida:	Har chorak yakunida	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
	<p>“Rahbar kadrlar, pedagoglar va talabalarning axloqiy sifatlari” mavzusida OTM nazariy seminarlarini o’tkazish va uning natijalari asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.</p> <p>“Oila-mahalla-universitet” tamoyili asosida “Ota-onalar Kengashi faoliyatini yo’lga qo‘yish.</p>		prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma'rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
5.	Turli tanlov va musobaqlar (fan-ta’lim, badiiy, san’at, ijodiy, sport yo‘nalishlari)ga talabalarni jalb etish, g‘olib va sovrindor talabalar to‘g‘risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish.	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (bo'lim boshlig'i), Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma'rifat bo‘limi, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
6.	O‘zbekiston xalq yozuvchisi <b>Omon Matjon tavalludining 80 yilligiga</b> bag‘ishlangan tantanali adabiy xotira kechasini tashkil etish.	2023-yil noyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma'rifat bo‘limi
7.	O‘zbekiston xalq shoiri <b>G‘afur G‘ulom tavalludining 120-yilligiga</b> bag‘ishlangan tantanali adabiy-badiiy xotira kechasini tashkil etish.	2023-yil noyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma'rifat bo‘limi
8.	Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi <b>Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligiga</b> bag‘ishlangan adabiy-badiiy anjumanni tashkil etish.		Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma'rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
9.	“Teatr – tarbiya maskani”, “Vatan bo‘ylab sayohat” shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, yoshlar orasida keng targ‘ib etish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘usini mustahkamlash	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash,

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
	maqsadida “Ajdodlar xotirasi yodimizda” (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) “O‘zbekiston — jannatmakon diyor”, “Baxtlar vodiysi”, “Biz nechun sevamiz, O‘zbekistonni”, “Bunyodkorlik yo‘lida” mavzularida professor-o‘qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etish.		ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTM muzeysi kuzatuvchilari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
10.	Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san’ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasiga bag‘ishlangan davra suhbatlarini tashkil etish.	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
11.	Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda madaniyat kunlarini tashkil etish hamda “O‘zbekiston – millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik yurti” mavzusida madaniyat festivalini o‘tkazish. <i>(Jadval ilova qilinadi).</i>	2023-yil noyabr-dekabr	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
12.	“Tinch va farovon yurtga bayramlar yarashadi” shiori ostida O‘zbekistonning tarixiy sanalari va umumxalq bayramlarini yuqori saviyada va keng miqyosda tashkillashtirish. <i>(Jadval ilova qilinadi).</i>	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
13.	“Sport bizni birlashtiradi”, “Sport – salomatlik garovi”, “Jismoniy tarbiya va madaniyat zamonaviy talaba uchun asosiy mezon” shiori ostida chelenjlarni tashkil etish.	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, OTM sport klubi, Tekvando va sport faoliyati

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
			fakulteti, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
14.	<b>Sportning Basketbol, Voleybol, Stol tennisi, Shaxmat turlari bo'yicha 3-bosqichli "Talabalar ligasi"</b> sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish	I bosqich (Oliy ta'lim muassasasi bosqichi): har yili sentabr – dekabr oylari oralig'ida Oliy ta'lim muassasasi fakultetlari o'rtasida o'tkaziladi. I-II bosqichlar fevral-may oylarida o'tkaziladi.	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, OTM sport klubi, Tekvando va sport faoliyati fakulteti, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
15.	Talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma'naviyatlari shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan ishlar natijadorligini oshirish (bunda quyidagi yo'naliishlarda "Ma'naviyat-ma'rifat va madaniyat oyliklari"ni o'tkazish tavsiya etiladi): sentyabr – "Mehr-muruvvat oyligi", oktyabr – "Ustoz va murabbiylar oyligi", noyabr – "Atrof-muhit muhofazasi oyligi", dekabr – "Huquqiy savodxonlik va madaniyat oyligi", yanvar – "Axborot xavfsizligi oyligi", fevral – "Sog'lom turmush madaniyati oyligi", mart – "Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish oyligi", aprel – "Tejamkorlik oyligi",	O'quv yili davomida reja-jadval asosida	Soha prorektorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Tyutorlar, TTJ direksiysi direktori va tarbiyachi-pedagoglar, OTM psixolog, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
	may – “Kitobxonlik va mutolaa oyligi”, iyun – “Yoshlar bonyodkorligi oyligi”.		
16.	Talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, mardlik va jasurlik fazilatlarini mustahkamlash maqsadida hududda joylashgan harbiy qismlar bilan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusida ma'rifiy ishlarni amalga oshirish.	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, Tyutorlar, kafedra mudirlari, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
17.	“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, “Yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati”, “Ichki va tashqi tahdidlar hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish vositalari”, “Jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash”, “Mening saylov huquqlarim”, “Adolatli saylov – adolatli jamiyat” mavzulari doirasida “Axborot va murabbiylik soati”ni mazmunli tashkil etish. “Konstitutsion islohot davr talabi” yoki “Konstitutsiya bosh qomusimiz” mavzusida davra suhbatlari tashkil etish <i>(Jadval ilova qilinadi).</i>	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Tyutorlar, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
18.	Talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha fakultetlardagi kafedralar, jamoat tashkilotlari, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, guruh sardorlari hamda Talabalar turar joylari faoliyati samaradorligini o'rganish asosida tarbiya bo'yicha “Ustoz-shogird tizimidagi eng faol kafedra”, “Eng namunali Talabalar turar joyi”, “Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik-tanlovlарini o'tkazish	2023-2024-yil yanvar-iyun jadval asosida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, ijtimoiy fanlar kafedralari, Tyutorlar, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
19.	Talabalarning ota-onalarini talabalar hayoti va ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammolari bilan tanishtirish, mazkur muammolarni o'rganish, aniqlash va o'zaro hamkorlik asosida mazkur muammolarni hal qilishga erishish, shuningdek ota-onalar o'rtasida doimiy hamkorlikni ta'minlash	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun jadval asosida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari,

<b>Nº</b>	<b>Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul va ijrochilar</b>
	maqsadida barcha akademik guruhlarda “Ota-onalar bilan muloqot maydoni” tadbirlarini tashkil etish.		OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
20.	Tarbiyaviy ishlarda ota-onalar, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan aloqalarini kuchaytirish va o‘zaro axborot almashinuvini tizimli yo‘lga qo‘yish.	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari
<b>II. MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY ISLOHOTLAR, QABUL QILINAYOTGAN QONUN HUJJATLARINING MAZMUN VA MOHIYATINI TALABALAR VA PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING KENG QATLAMLARIGA YETKAZISHGA QARATILGAN TARG'IBOT TADBIRLARI</b>			
21.	OTM rahbar kadrlari va pedagogik jamoasi uchun har hafta mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, xorijda ro'y berayotgan voqealar, yangi qabul qilingan qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” mavzuida ma'rifat soatlarini tashkil etish.	2023-yil sentyabrdan boshlab 1 oyda 2-marta	Rektor, soha prorektorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Tyutorlar, TTJ direksiysi direktori va tarbiyachi-pedagoglar, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
22.	Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, turli sohalarda olib borilayotgan islohotlarning yoshlar turmush tarziga ta'sirini o'rganish maqsadida “Ijtimoiy rivojlanish va daxldorlik tuyg'usi” mavzusida ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar va o'quvchilar o'rtasida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va natijalari asosida tahliliy materiallar tayyorlash.	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, O'quv-tarbiya jarayonini sotsiologik o'rganish va psixologik tahlil qilish guruhi, OTM sport klubi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
23.	OTM hududida shuningdek, veb-saytlar hamda internetdagi sahifalarida: ko'rgazmali tasviriy-targ'ibot va tarbiyaviy vositalar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, innovatsiyalar, o'zlikni anglash va vatanparvarlik hamda jismoniy tarbiya, sport va kitobxonlikka oid shiorlar, hikmatli so'zlardan iborat bannerlar, devoriy lavhalar bilan ta'minlanishini tashkil etish.	2023-yil sentyabr-oktyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, TTJ direksiyasi direktori, OTM psixolog, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
24.	Talabada milliy qadriyatlarga hurmat, mamlakat tarixiga daxldorlik hissini rivojlantirish maqsadida “Vatan kelajagi uchun barchamiz daxldormiz” shiori ostida debatlar o'tkazish. <i>(Jadval ilova qilinadi).</i>	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun jadval asosda	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi, OTM sport klubi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
25.	“O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun” munosabati bilan, oliy ta'lim muassasalarida “Davlat tili – milliy ma'naviyatimiz timsoli” mavzusida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tanlovlarni tashkillashtirish.	2023-yil oktyabr 2024-yil iyun	Vazirlik huzuridagi “Ma'naviyat va ma'rifikat” markazi, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
<b>III. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN 5 TASHABBUSNI KENG JORIY ETISHGA QARATILGAN TADBIRLAR</b>			
26.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni amalga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2023-yil sentyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi boshlig'i

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
27.	Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, shuningdek aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan “Besh tashabbus olimpiadasi”ga talabalarning munosib ishtirokini ta'minlash va tayyorgarlik ko'rish.	2023-yil sentyabr-noyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i
28.	5 muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha fakultetlar reyting ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi elektron maxsus stendlar va tarqatma materiallarni tayyorlash.	2023-yil sentyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
29.	I-tashabbus doirasida talabalarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar: “Yoshlar” teatr-studiyasi, milliy qo'shiq va raqs ansamblı, “Akademik xor” kabi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularni zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash. “Tasavvurimda jonajon O'zbekistonim”, “Teatr – ibrat maskani”, “Nazm va navo” mavzularida tanlovlardan o'tkazish; “Talabalar teatr studiyasi” festivali OTM bosqichini o'tkazish; talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi, yaratgan ishlanmalari va ma'rifiy targ'ibot aksiyasini o'tkazish; san'at arboblari, yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar bilan vebinar uchrashuvlar, mushoiralar, badiiy kechalar tashkil etish; “Men chizgan surat” ko'rgazmasini tashkil etish; “Yagonasan, muqaddas Vatan!” Respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish; talabalarning badiiy-ijodiy ishlari ko'rgazmasi, yarmarkasi, dramaturgiyasi va konsertlarini tashkil etish.	2023-2024-o'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, jamoat tashkilotlari, kafedra mudirlari, Tyutorlar, psixolog, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

№	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
30.	<p>2-tashabbus doirasida sportning turli yo'nalishlari bo'yicha Osiyo, jahon va olimpiada championlari, musobaqa g'oliblari ishtirokida vebinar uchrashuv va mahorat darslarini o'tkazish.</p> <p>mamlakatimizning sport sohasida erishayotgan yutuqlarini yoshlarga keng targ'ib etish maqsadida "Olimpiya shon-shuhrati muzeyi"ga tashrif asosida "Mahorat darslari"ni o'tkazish;</p> <p>fakultetlar kesimida dars mashg'ulotlaridan so'ng sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish;</p> <p>"Oltin kuz" sovrini uchun yengil atletika bo'yicha kross yugurish (yigitlar-3000 m, qizlar-2000 m) musobaqasini o'tkazish, yugurish musobaqalarini tashkil etish;</p> <p>oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sport-sog'lomlashtirish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlarini muntazam targ'ibot qilish maqsadida seminar-treninglar, suhabatlar, ma'ruzalar va konferensiylar o'tkazish;</p> <p>yoshlar o'rtasida "Sport bilan og'usiz hayot sari" shiori ostida sportning futbol, voleybol, stol tennisi, badminton, shaxmat va shashka turlari bo'yicha sport musobaqalarini o'tkazish.</p>	2023-yil sentyabr, 2024-yil iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, OTM sport klubi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
31.	<p>3-tashabbus doirasida talabalar o'rtasida kompyuter dasturlash, robototexnika va kompyuter sporti (kibersport)ni ommalashtirish:</p> <p>IT-yo'nalishi bo'yicha talabalar o'quv kurslarini tashkil etish;</p> <p><b>"Bilimlar bellashuvi" tanlovi</b> tashkil etish;</p> <p>umumta'lim maktab o'quvchilari uchun OTM talabalarini tomonidan kompyuter dasturlash bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, mahorat darslarini tashkil etish.</p>	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, Matematika fakulteti kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
32.	4-tashabbus doirasida akademik guruhlarda har haftada bir marotaba shaklda badiiy adabiyot taqdimotini tashkil qilish. Uning doirasida " <b>Mening birinchi kitobim</b> " ma'rifiy loyihasini o'tkazish. Loyerha doirasida talabalar ijod namunalarini to'plam sifatida nashr etish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan

No	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
	<p>Talabalarning ilmiy-ma'rifiy, badiiy, ensiklopedik va ilmiy adabiyotlarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida mamlakatimiz nashriyotlarida mavjud kitoblarning elektron katalogini yangilash;</p> <p>ARMning kutubxona fondini o'quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma'rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;</p> <p>Talabalarni badiiy adabiyot mutolaasiga qiziqishlarini yuksaltirishga qaratilgan "Bir oyda 10 kitob — 1 yilda 100 kitob bilan do'stlashdim", "Jahondagi javohirlar" loyihasi doirasida OTM tanlovlarni tizimli o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish ishlarini amalga oshirish;</p> <p>«Talaba o'qishi zarur bo'lgan 100 kitob» ro'yxatini tuzish, yil davomida ushbu asarlar OTM veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida o'qib borilishini tashkil etish, turli roliklar, bosma targ'ibot ishlarini amalga oshirish va ijtimoiy tarmoqlarda ushbu tashabbusning keng tashviqotini olib borish.</p> <p>O'qituvchi va talabalar o'rtasida "Eng kitobxon talaba", "Eng kitobxon murabbiy", «ARMning eng faol a'zosi» kabi ko'rik-tanlovlarni o'tkazish;</p> <p>Talabalar o'rtasida milliy va jahon mumtoz adabiyotining yuksak namunalarini targ'ib qiluvchi "Kitob bu – mo'jiza", "Kitobga mehr – ma'naviyatga, ma'rifatga mehrdir" mavzularida "Kitob bayrami" va "Kitob yarmarkalari"ni tashkil etish;</p> <p><b>"Birga kitob o'qiymiz"</b> loyihasini amalga oshirish;</p> <p>ARMga Axborot resurs markaziga, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi axborot-kutubxona muassasalariga talabalarni faol jalb etish borasidagi tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>ARM qoshida "Kitobxonlar klubı"ni tashkil etish;</p> <p>Professor-o'qituvchilari o'rtasida "O'qituvchining talabalarga 3 ta badiiy adabiyot sovg'asi" va "Rahbarning ta'lif muassasasiga 10 ta badiiy adabiyot sovg'asi" aksiyasini tashkil etish.</p>		ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
	O'zbek adabiyoti vakillari ijodi bilan yaqindan tanishish va ularning badiiy asarlarini mutolaa qilish hamda allomalarining tavallud kunlariga bag'ishlangan adabiy-badiiy kechalar tashkil etish.		
33.	<p>5-tashabbus doirasida talabalarni tarbiyaviy jarayonlarga to'liq qamrab olish, ularni bandligini ta'minlash, darsdan bo'sh vaqtini samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar:</p> <p>OTMdA tikish-bichish, kashtachilik, milliy hunarmandchilik bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish, "Qizlar davrasi", "Oilaga va turmushga tayyorlash" mavzularida psixologik seminar-treninglar o'tkazish.</p> <p>Imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan "Oltin qanot" OTM volontyorlar guruhi faoliyatini takomillashtirish.</p> <p>"Qizlarjon" klubi faoliyatini tizimli tashkil etish hamda guruhdagi lider qizlarni guruhga va klub faoliyatiga mas'ul qilib biriktirish;</p> <p>"Yoshlar kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida OTMdA "<b>Mahorat maktabi</b>" yarmarkalarini tashkil etish;</p> <p>Toshkent shahri va viloyatlardagi maktablarda tashkil etilayotgan to'garaklar faoliyatini o'quv-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy tarqatma va didaktik materiallar bilan ta'minlashda ishtiroy etish;</p> <p>Iqtidorli talaba-yoshlarning (Xalqaro va Respublika tanlovlari va musobaqalari, fan olimpiadalari, davlat mukofotlari, stipendiantlari, "Zulfiya" mukofoti, "Nihol" va boshqa tanlovlar sovrindorlari) erishgan yutuqlarini yuzaga chiqarish hamda o'z tengdoshlariga o'rnak qilish maqsadida "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali "<b>Teleiqtidor</b>" ko'rsatuvini tashkil etish.</p>	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun	<p>Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, OTM psixologgi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi</p>

**IV. TALABALARDA MUTAXASSISLIK MADANIYATI, KASB ODOBI VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI  
 SHAKLLANTIRISH BO'YICHA MALAKA-KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHIDA  
 AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR**

<b>Nº</b>	<b>Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul va ijrochilar</b>
34.	Fakultetlarda 1-kursga qabul qilingan talabalar bilan “Men tanlagan mutaxassislik” mavzusida davra suhbatlarini o’tkazish.	2023-yil sentyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, OTM psixologi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
35.	OTM pedagogik jamoasida umummilliy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan: “Rahbar kadrlar, pedagoglar va talabalarning axloqiy sifatlari” mavzusidagi nazariy seminarlarini o’tkazish va uning natijalari asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.	Har chorak yakunida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, OTM psixologi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
36.	OTMdagi ta'lim yo'nalişlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumta'lim mакtablarida “Toshkent shahrining ta'lim sohasidagi tajribalari: qadriyatlar, an'analar”, “OTMdа maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi va uning tarbiyaviy assoslari”, “OTM + mакtab = Taraqqiyot” mavzusida ma'naviy targ'ibot aksiyalarini o’tkazish.	Har chorakda	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, OTM psixologi, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
37.	Talaba yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlash hamda ularning ta'lim muassasalaridagi amalga oshirilayotgan ishlarga nisbatan daxldorlik tuyg'ularini shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyalarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaviy holatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishga qaratilgan sotsiologik tadqiqot o’tkazish va natijalari asosida tahliliy materiallar tayyorlash.	2023-yil dekabr 2024-yil yanvar	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, O'quv-tarbiya jarayonini sotsiologik o'rganish va psixologik tahlil qilish guruhi,

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
			fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari
<b>V. DUNYODA YUZ BERAYOTGAN MURAKKAB GEOSIYOSIY VA G'OVAVIY-MAFKURAVIY JARAYONLARNING MAZMUN-MOHIYATINI YORITISH, TURLI TAHDIDLARGA QARSHI SAMARALI G'OVAVIY KURASH OLIB BORISH</b>			
38.	OTMdai separatizm, millatchilik va shovinistik harakatlar, din niqobidagi ekstremizm, buyuk davlatchilik, "ommaviy madaniyat", millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikka qarshi qaratilgan adovatning avj oldirishga sabab bo'ladigan huquqbuzarlik kabi qator ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish bo'yicha turkum ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etib borish. (Ayniqsa, Farg'ona, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent, Jizzax viloyatlari, shuningdek, chegara tumanlari mavjud bo'lgan hududlar, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida bunga alohida e'tibor qaratib, chora-tadbirlar belgilash)	2023-yil sentyabr-2024-yil iyun har chorakda	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
39.	Talabalar turar joylarida "Biz "ommaviy madaniyat"ga qarshimiz", "Vatanimiz ravnaqi yo'lida xalqimizga kamrabastamiz", "Diniy bag'rikenglik ota-bobolarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyat" kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
40.	"Vatanparvarlikni chinakam e'tiqodga aylantiraylik", "O'zbek yigit - mustaqillik posboni" mavzularida harbiy soha mutaxassislarini jalb qilgan holda vebinar davra suhbatlari o'tkazish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, OTM harbiy kafedrasи fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

No	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
41.	“Barchasi o‘z qo‘lingda” shiori ostida targ‘ibot dekadalari tashkil etish. Talaba-yoshlar bilan “Yashash baxti”, Hayot bebaho ne’mat”, “Tiriklik oliy ne’mat” shiori ostida davra suhbat va ijodiy ishlar tanlovi kabi ma’daniy-ma'rifiy tadbirlar haftaligini o’tkazish.	2023-yil oktyabr, dekabr, 2024-yil fevral, aprel	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
42.	Jamiyatda uchrayotgan turli salbiy illatlar va muammolarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadida OTMdagi notiqlik va boshlovchilikka qiziqadigan “Tashabbuskor talabalar tadbiri” (“TTT”) debat klubini tashkil etish. OTM rahbariyatining tizimning ochiqligi va shaffofligi, talabalarni qiyab kelayotgan muammolar xususida “Talaba va rahbariyat” uchrashuvlarini tashkil qilish hamda “Talaba murojaati” botini ishga tushirish	2023-yil oktyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
43.	Professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar va talaba-yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularni turli jinoiy harakatlardan asrash hamda turli huquqbuzarliklar, jinoiy harakatlarning oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari, din ishlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlikda soha mutaxassislari ishtirokida vebinar ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik tadbirlarni tashkil etish	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
44.	“Korrupsiyasiz hayot” aksiyasini o’tkazish. Aksiya doirasida: “Korrupsiya – taraqqiyot kushandası” mavzusida targ‘ibot tadbirlari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida vebinar davra suhbatlari va tanlovlari tashkil etish. Professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlar o‘rtasida “Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar tizimini takomillashtirish.	O‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, OTM “Yoshlar parlamenti”, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi

<b>Nº</b>	<b>Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul va ijrochilar</b>
45.	<b>“Yoshlarning ma'naviy-axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llari”</b> mavzusida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, OTM “Yoshlar parlamenti”, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, matbuot kotibi
46.	Huquq-tartibot organlari xodimlari hamkorligida <b>“Ogohlikni men qanday his etaman?”, “Agar ogohsan, sen...”</b> mavzularida tanlovlardan o'tkazish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, OTM “Yoshlar parlamenti”, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, matbuot kotibi
47.	Talabalarning OTM rektori va ma'muriyati bilan <b>“Ochiq muloqot”</b> larini tashkil etish.	2023-yil oktyabr, dekabr-2024-yil fevral-iyun	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari
48.	Talaba-yoshlar o'rtasida <b>“Korrupsiya kelajakka tahdid”</b> mavzusida insholar tanlovini o'tkazish.	2023-yil noyabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari
<b>VI. YOSHLARDA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH, ULARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN TADBIRLAR</b>			
49.	Internet maydonida ichki va tashqi tahdidlarga samarali qarshi kurashishni ta'minlash maqsadida bo'lim boshliqlari, dekan o'rinoslar, tarbiyachi-pedagoglar, tyutorlar va uslubchilar uchun <b>“Internet maydonidagi ma'naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashishning usullari”</b> mavzusida turkum o'quvlar tashkil etish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Tyutorlar, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari,

Nº	Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul va ijrochilar
			OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi
50.	"Adiblar xiyoboni – ma'naviy bunyodkorlik ramzi" shiori ostida OTM tanlab olgan adibning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan hujjatli film yaratish va taqdimotini o'tkazish.	2023-yil dekabr	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, OTM Axborot-resurs markazi, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, matbuot kotibi
51.	OTMdagi psixolog xizmatini tashkillashtirish, ruhshunos (psixolog)lar tomonidan yoshlar bilan individual suhbatlar, muloqotlar olib borilishini nazorat qilish.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, matbuot kotibi
13	Professor-o'qituvchilar, xodimlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning psixologik ildizini o'rGANISH, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish hamda bartaraf etish choralarini ko'rish.	"Sotsiometriya" metodlari o'tkazish. Metodika natijalari bo'yicha oliy ta'lif muassasasi rektoriga bildirishnomasi kiritish. "Jamoaga psixologik moslashuv mexanizmlari va shaxs xususiyatlari" mavzusida mashg'ulotlar o'tkazish.	Rejagrafik asosida	Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog
14	O'zlashtirishi sust bo'lgan talabalarni ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash va ularga yordam berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish.	Tyutorlar bilan hamkorlikda o'zlashtirishi past talabalar kontingenti aniqlash va past o'zlashtirish sabablarini profilaktika qilish.	Semestr yakunida	Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog, tyutorlar
15	Suitsidga moyilligi bor talabalarni aniqlash bo'yicha psixologik metodikalar o'tkazish.	Sung so'rovnomasasi, nevrasteniyani aniqlashning ekspress shkalasi hamda psixologik so'rovnomalar o'tkazish	Noyabr va mart oylarida	Psixolog, tyutor
16	Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan nogironligi bor talabalarga ruhiy ko'mak berish va ularni psixologik qo'llab-quvvatlash	Bu toifadagi talabalarning ma'lumotlar bazasi yaratiladi va ular bilan individual suhabatlar hamda psixologik metodikalar tashkil etiladi.	Har chorakda	Psixolog, dekan muovinlari, tyutorlar
<b>IV. PSIXOKORREKSIYA ISHLARI MAZMUNI</b>				
17	Psixodiagnostika jarayonlarida aniqlangan muammolar yuzasidan talabalar bilan individual va jamoaviy tarzda suhabat va mashg'ulotlar olib borish.	Talabalar bilan individual tarzda bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi metodikalar o'tkazish.	Noyabr, mart oylari	Yoshlar masalalari va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, Fakultet dekanlari,

		Guruhiy va jamoaviy tarzda “Yashash uchun ming bir sabab!”, “Hayot naqadar go‘zal” aksiyalari tashkil etish.		kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog, tyutorlar
18	Talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi nomutanosiblikni yo‘qotish maqsadida maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish.	Trening, rolli o‘yinlar va psixodrammalardan foydalanish.	Har chorakda	Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog, tyutorlar
19	Talabalar, professor-o‘qituvchilar va xodimlarda yuzaga kelayotgan emotsiyal zo‘riqish, stress holatlarining oldini olish hamda ularni kamaytirish maqsadida psixokorreksion xona tashkil qilish.	Ta’lim muassasasida stress va zo‘riqishlarni bartaraf etadigan zamonaviy usulda jihozlangan maxsus xona tashkil etish.	Sentyabr-oktyabr oyi	Oliy ta’lim muassasasi moliya va iqtisod ishlari prorektori, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor

#### V. PSIXOLOGIK MASLAHAT ISHLARI

	Ta’lim, taraqqiyot, tarbiya, kasbiy shakllanish va turmush qurish, o‘zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolar yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.	Professor-o‘qituvchilar, xodimlar, tyutorlar va talabalarning murojaatlari asosida muammolar ko‘lamiga qarab psixologik maslahatlar tashkil etiladi.	Rejagrafik asosida	Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog, tyutorlar
--	--	--	--------------------	---

#### VI. PSIXOLOGIK TARG‘IBOT VA MA’RIFAT ISHLARINI OLIB BORISH

	Pedagoglar jamoasida muomala madaniyatini takomillashtirish, talabalar bilan professor-o‘qituvchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish uchun targ‘ibot ishlarini olib borish.	“Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda talabalarga psixologik yondashuv va o‘zaro munosabatlar oynasi” mavzusida institut professor-o‘qituvchilari uchun ma’ruza tashkil etiladi	Oktyabr oyi	Kadrlar bo‘limi boshlig‘i, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, dekan muovinlari, psixolog
21				

22	Oliy ta'lim muassasining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sayti, kanal va gruppalariga motivatsion aforizmlar, psixologik roliklar va intellektual rivojlantiruvchi mashqlarni muntazam joylab borish.	Doimiy ravishda institut psixologi tomonidan oliy ta'lim muassasidagi ijtimoiy tarmoqlarga video roliklar, miyani rivojlantiruvchi psixologik mashqlar, motivatsion va intellektual metodikalar joylashtirib boriladi	O'quv yili davomida	Oliy ta'lim muassasasi matbuot kotibi, Yoshlar masalalari va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, psixolog
23	Oliy ta'lim muassasasi psixologlarining ish samaradorligini oshirish, tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida Farg'ona davlat universitetida o'quv seminar-trening tashkil etish.	Seminar dasturini ishlab chiqish. Dastur asosida o'quv seminar treningini tashkil etish.	Aprel oy	Farg'ona davlat universiteti
24	Oliy ta'lim muassasasi rahbariyati va jamoasi bilan birgalikda talabalar uchun tashkil etiladigan ko'ngilochar tadbirlar, konsert dasturlari va turli bellashuvlarda ishtirok etish.	Oliy ta'lim muassasasi yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi rejasiga asosan tadbirlarda ishtirok etiladi.	O'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i, psixolog

Vazirlikning 2023-yil “29” 08 dagi 396 -son buyrug‘iga 5-ilova

**Oliy ta’lim muassasalaridagi Xotin-qizlar maslahat kengashlarining 2023-2024-o‘quv yilida amalga oshiradigan ishlari bo‘yicha  
NAMUNAVIY REJA**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro uchun mas’ullar
<b>I.ME’YORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH</b>				
1	<p>2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qonunlar, qarorlar va farmonlar mohiyatini chuqur anglagan holda tizimdagи xotin-qizlar uchun onlayn o‘qishlar tashkil etish.</p> <p>Talaba qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida “Siz qonunni bilasizmi” mavzusidagi viktorina, “Zakovat” o‘yinlarini o‘tkazish</p>	Har chorak	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Reja grafik ishlab chiqish va tasdiqlash</li> <li>2. Reja grafikni amalga oshirish</li> </ol>	Ta’lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi

2	Xotin-qizlar maslahat kengashi raisining yillik ish rejasi ijrosi yuzasidan Ilmiy kengashdagi axborotini eshitish.	O'quv semestri yakunida	1. Ish reja bandlari ijrosi yuzasidan batafsil axborot tayyorlash. 2. Axborot nusxasini vazirlikka rahbar imzosi bilan kiritib borish.	Ta'lim muassasining rektori (direktori) Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
3	Ta'lim muassasalarida "Qizlarjon" klubi faoliyatini takomillashtirish orqali qizlarni axloqiy va estetik madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni kasbhunarga yo'naltirish, mazkur klubning yagona rejasini ishlab chiqish.	2023-yil 25-sentyabr	1. "Qizlarjon" klubi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ish reja ishlab chiqish va tasdiqlash; 2. Klubning yangi o'quv yilidagi tashkiliy masalalar bo'yicha yig'ilishini tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi, Ta'lim muassasasi "Qizlarjon" klubi raisi
4	Talabalar turar joylaridagi xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish choralarini ko'rish;  TTJlarda o'quvchi-qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan ijodiy, kasbiy, badiiy to'garak-klublar faoliyatini yanada kuchaytirish;  Xususiy xonadonlarda va ijarada yashovchi o'quvchi qizlar bilan ishslash bo'yicha <b>yagona tizim ishlab chiqish</b> va uni nazoratga olish.	2023-yil 25-sentyabr  Doimiy	1.Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish.Unda:  1.TTJ da o'quvchi-qizlar bilan olib borilayotgan psixologik suhbatlar mavzusi, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, reproduktiv salomatlik bo'yicha suhbatlar, kasbga yo'naltirish va hunar o'rgatish, bandligini ta'minlash choralarini ko'rishni belgilash  2.Xususiy xonadon va ijarada yashovchi o'quvchi-qizlar bilan individual ishslash. Tarbiyasi og'ir, IIB profilaktik ro'yxatida turuvchi, nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchi-qizlar bilan manzilli ishslash, ularning turar joylarini borib o'rganish va ular bilan psixologik suhbatlar tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi, Psixologlar

## II.Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish

5	Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf qilish, oilaviy ajrimlar va shu kabi salbiy holatlarga ularning munosabati va fikr-mulohazalarini o'rganish bo'yicha sotsiologik tadqiqot o'tkazish.	2024-yil fevral	1. So'rovnomalar loyihasini ishlab chiqish. 2. Talaba-qizlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va takliflar tayyorlash	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi, Psixolog
6	Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturining o'tilishini monitoring qilish.	Har chorakda	1. Ichki ishlar bo'limi bilan hamkorlikda zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan pedagog xodimlar, o'quvchilarni aniqlash, ro'yxatini shakllantirish 2. Ularning tuzatish dasturlarida ishtirok etishi va o'zgarishlari yuzasidan monitoring o'tkazib borish	Psixolog, Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
7	Tazyiq va zo'ravonlikka uchrab, "Himoya orderi" olgan xotin-qizlar monitoringini olib borish va ular bilan alohida ishlash orqali oiladagi ijtimoiyma'naviy muhit barqarorligiga erishish	O'quv yili davomida	Hududiy oila va xotin-qizlar bo'limlari, ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo'limlarning xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari, OTM psixologi bilan hamkorlikda ishlash	Oliy ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi, psixolog
<b>III. Ta'lim muassasalarida xotin-qizlar bilan ishlash tizimi</b>				
8	Talaba-qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirish.	O'quv yili davomida	1.Reja-grafik ishlab chiqish 2.Hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan hamkorlikda reja-grafik asosida tibbiy ko'rikni tashkil etish	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
9	Og'ir ijtimoiy sharoitda bo'lgan, yolg'iz, boquvchisi yo'q, farzandli bo'lgan talaba-qizlarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish.	O'quv yili davomida	1.Og'ir ijtimoiy sharoidagi xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi

			2.Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	
10	Ta'lim muassasasidagi xotin-qizlar umumiy ro'yxatini shakllantirish; Unda nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, notinch oilada tarbiyalanayotgan talaba-qizlar, 30 yoshgacha bo'lgan ayol-xodimlar, iqtidorli talaba qizlar, TTJ da yashayotgan o'quvchi-qizlar ro'yxati, shaxsiy xonadonda yashayotgan o'quvchi-qizlar va yaqin qarindoshlari bilan yashayotgan o'quvchi-qizlar va x.k ro'yxatini shakllantirish va yangilab borish.	Har chorakda 2023-yil 25-sentyabr doimiy	1. Umumiyo o'quvchi-qizlar ro'yxatini tuzish; 2. Ular bilan tizimli ishlarni yo'lga qo'yish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
11	Ta'lim muassasasida mehnat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida iqtidorli, salohiyatlari kadrlarni aniqlab, ulardan zaxira kadrlarini shakllantirish.	O'quv yili davomida	1. Ro'yxatlarni shakllantirish, kadrlar bo'limi bilan hamkorlikda ularni zaxira kadrlar ro'yxatiga qo'yish va ularning rahbarlik malakasini oshirish kurslariga jalb qilish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi, Kadrlar bo'limi
12	Notinch oilalar bilan ishlash va bunday oilalarda yashayotgan talaba-qizlarga alohida e'tibor qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazilishini ta'minlash.	Har chorak yakunida hisobot taqdim etish	1. Ro'yxat asosida ularga murabbiy (mas'ul) biriktirish 2. Mahalla bilan hamkorlikda oila a'zolari bilan psixologik suhbatlar tashkil etish, oila bilan psixolog o'rtasida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish; 3. Ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida bandligini ta'minlash, turli to'garaklarga jalb etish.	Psixolog, Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi

13	Axloqida o'zgarishlar bo'lgan, nosog'lom turmush tarzini kechirayotgan qizlar bilan individual ishlash	O'quv yili davomida	Ro'yxat shakllantirish, qizlar bilan doimiy individual ishlash hamda otanonasini xabardor etish	Psixolog, Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
14	Separatizm va mutaassiblik g'oyalari ta'siriga tushib qolgan shaxslarni, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni sog'lom hayotga qaytarish.	O'quv yili davomida	1.Ichki ishlar bo'limi bilan hamkorlikda Separatizm va mutaassiblik g'oyalari ta'siriga tushib qolgan pedagog xodimlar, talabalarni aniqlash, ro'yxatini shakllantirish. 2. Ular bilan individual ishlash.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
15	Ishlash istagi bo'lgan qizlarni kasbga yo'naltirish maqsadida monomarkazlarda o'qitish va kasb o'rganishga ko'maklashish va huquqiy maslahatlar berish.	O'quv yili davomida	1. O'zini-o'zi band qilish istagida bo'lgan ishsiz yoshlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Kasb o'rganish istagida bo'lgan yoshlarni monomarkazlarga yo'naltirishga ko'maklashish. 2. Ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, faoliyatini yo'nga qo'yishga ko'maklashish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
<b>IV. Xotin-qizlar o'rtaida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va OAV yoritish</b>				
16	OTM – Xotin-qizlar orasida oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning salbiy oqibatlari yuzasidan tizimli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.	O'quv yili davomida	Grafik-reja asosida tadbirlar tashkil etish va unga soha bo'yicha tajribali mutaxassislarni jalg etish.	Xotin-qizlar maslahat Kengashi, mutaxassislar

17	Ta'lim muassasalarida “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash” maslahatxonalarini tashkil etish.	O'quv yili davomida	Xotin-qizlar maslahat kengashi xonasida har oyda bir marotaba, yosh oila qurish ostonasida bo'lgan talabalar bilan suhbatlar tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
18	“O'zbek qadriyatlari va urf-odatlari buvijonlar talqinida” mavzusida turkum tadbirlar tashkil etish.	O'quv yili davomida	Grafik-reja asosida tadbirlar tashkil etish va unga soha bo'yicha tajribali mutaxassislarni jalg etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
19	21-martdan 21-aprelgacha “Milliy liboslar-Mening iftixorim” mavzusidagi Milliy liboslar oyligini tashkil etish.  Oylik davomida ta'lim muassasasi xotin-qizlarini milliy kiyim kiyishlariga jalg etish, mavzu bo'yicha davra suhbatlari, tanlovlardan o'tkazish.	2023yil Mart-aprel	O'zbek ayolining ko'rki bo'lgan milliy liboslar to'g'risida talaba-qizlarga tushunchalar berish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
20	Talaba-qizlarni diniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishtirish, ular o'rtasida diniy bag'rikenglik g'oyasini keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekistonligi Islom civilizatsiyasi markazi, Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termizi singari yirik diniy-ma'rifiy majmualarga tashriflarini tashkil qilish.	Grafik-reja asosida	Grafik-reja asosida tadbirlarni tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
21	Xotin – qizlar orasida kasalliklarning oldini olish, jismoniy faoliyat darajasini	Grafik-reja asosida	Grafik-reja asosida tadbirlarni tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi

	oshirish. Turli sport musobaqalarini tashkil etish.			
22	Ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan pedagog xotin-qizlarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etish.	Grafik-reja asosida	Tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
23	11-fevral "Ilm-fan sohasida ayollar va qizlar xalqaro kuni"ga bag'ishlab ta'lim muassasasi Xotin-qizlar masalalari kengashlarining yillik Plenumini o'tkazish.	2024-yil fevral oyi	<ol style="list-style-type: none"> <li>Yillik plenum dasturini ishlab chiqish;</li> <li>Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar masalalari kengashi ro'yxatini shakllantirish;</li> <li>Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar masalalari kengashi a'zolari hisobotlarini tinglash.</li> </ol>	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
24	"11-oktyabr – Xalqaro qizlar kuni" munosabati bilan " <b>Sening tashabbusing-sening kelajaging</b> " shiori ostida yosh qizlar o'rtaida forum o'tkazish.	2023-yil 10-11-oktyabr	Tadbir dasturini ishlab chiqish va dastur asosida uchrashuv va davra-suhbatlar tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
25	<p>Ta'lim muassasalarida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti namunasi asosida "<b>Lider qizlar</b>" klublarini tashkil etish.</p> <p>Mazkur klublarni tashkil etishdan maqsad: talaba-qizlarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish, ulardag'i inson kapitalini oshirish va ularni bo'lajak rahbar ayol ruhida tarbiyalash.</p>	2023-yil sentyabr-dekabr oylari	<ol style="list-style-type: none"> <li>"Lider qizlar" klubini faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizom loyihasini tayyorlash va tasdiqlash;</li> <li>"Lider qizlar" klubini a'zolari tarkibini shakllantirib olish uchun ta'lim muassasasida e'lon berish;</li> <li>"Lider qizlar" klubini a'zoligiga nomzodlar ro'yxatini shakllantirish;</li> <li>"Lider qizlar" klubini a'zoligi saralash bosqichlarini tashkil etish bo'yicha</li> </ol>	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi

			<p>komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirish;</p> <p>5. "Lider qizlar" klubi saralash bosqichlarini o'tkazish;</p> <p>6. "Lider qizlar" klubi a'zolarini saralab olish;</p> <p>7. O'quv yili davomida amalga oshiriladigan tadbirlar ish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.</p>	
26	Talaba-qizlar o'rtasida "Rahbar ayol imidjini yaratish" nomli uchrashuvlar tashkil etish.	2023-2024 o'quv yili davomida	Hududlarda faoliyat yuritayotgan rahbar ayollarni taklif etib, talaba-qizlar o'rtasida motivatsion tadbirlar tashkil etish.	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
27	Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning sayohatlarini tashkil etish	Grafik-reja asosida	<p>1. Ta'lim muassasalari xotin-qizlarning sayohatlarini tashkil etish yuzasidan kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda dastur ishlab chiqish.</p> <p>2. Xotin-qizlarning mamlakatimizdagi so'lim go'shalar, dam olish maskanlari va tarixiy shaharlarga sayohatlarini tashkil etish.</p>	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
28	"Inson taftini inson oladi" shiori ostida har oyda bir marotaba uyida yotib qolgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar xolidan xabar olish.	Grafik-reja asosida	<p>1. Ehtiyojmand, uyida yotib qolgan ayollar ro'yxatini shakllantirish</p> <p>2. Xayriya tadbirlariga talaba-qizlarni jalb etish</p>	Ta'lim muassasasi Xotin-qizlar maslahat kengashi
<b>O'quv yili davomida o'tkaziladigan respublika tadbirlari</b>				
29	"Talaba-qizlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" mavzusida	2023-yil 20-oktyabr	1. Seminar-terering dasturini ishlab chiqish;	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

	Surxandaryo viloyati oliy ta'lim muassasalari tajribasini o'rganish		2. Tadbirda ishtirok etuvchi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatini shaklantirish. 3. Tadbirni yuqori saviyada tashkil etish	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
30	“Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka barham berish, talaba-qizlar iqtidorini aniqlash, ularni rahbar kadr qilib tarbiyalash”da amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari tajribasini o'rganish.	2024-yil 15-mart	1.Seminar-tering dasturini ishlab chiqish; 2.Tadbirda ishtirok etuvchi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatini shaklantirish. 3.Tadbirni yuqori saviyada tashkil etish	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qoraqalpog‘iston davlat universiteti
31	“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida xotin-qizlar maslahat kengashi raislarining sayohatlarini tashkil etish	2024-yil 15-iyun	Tadbir dasturini ishlab chiqish va dastur asosida sayohatlarini tashkil etish	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qarshi davlat universiteti

Vazirlikning 2023-yil “29” 08 dagi 396 -son buyrug‘iga 6-ilova

**Tyutorlar uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan  
NAMUNAVIY ISH REJASI**

<b>Nº</b>	<b>Bajariladigan ish mazmuni</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas’ullar</b>
1.	<p>Birinchi kurs talabalarini mavjud shart-sharoitga ko‘niktirish, moslashtirish jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— “<b>Birinchi kurs maktabi</b>” tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish (darsdan tashqari vaqtarda) va bunda quyi kurs talabalarining faol ishtirotini ta’minalash;</li> <li>— talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish;</li> <li>— talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatgan holda o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;</li> <li>— “<b>Odob axloq kodeksi</b>” ning mazmun mohiyati bilan barcha kurs talabalarini tanishtirish va OTMning ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi qonun -qoidalariiga rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;</li> <li>— talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa qoidalalar buzilganda unga nisbatan chora ko‘rish to‘g‘risida ta’lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish;</li> <li>— talabaning axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni yorituvchi yig‘ma jild hamda “Axborot soati” darsi va ish rejasidagi turli xil tadbirlarni qayd qilish jurnalini elektron tutish va yuritib borish.</li> </ul>	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
2.	<p><b>OTM talabalarining ma’lumotlar bazasini yaratish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— (TTJ da, ijarada, yaqin qarindoshinikida va shaxsiy xonadonda) yashovchi talabalarning umumiy elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish ;</li> <li>— talabalar yashash joylarini hududlar (qizil, sariq, yashil) kesimida o‘rganish;</li> <li>— talabalar turar joylarida, ijarada va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam tashrif buyurib, u yerda yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va mutasaddilarga taklif kiritish;</li> </ul>	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, OTM profilaktika inspektori, psixolog, fakultet dekanning Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi.

	<p>— xususiy xonadonda va ijarada yashovchi talabalar bilan amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy tabdirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;</p> <p>-xususiy xonadon va ijaradagi talabalarning mashg‘ulotlarga tayyorgarligi, dam olish sharoitlarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘rish;</p> <p>-xususiy xonadonda va ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini nazorat qilish maqsadida <b>mahalla oqsoqoli, tyutor va talaba o‘rtasida o‘zaro aloqani</b> yo‘lga qo‘yish;</p> <p>- bu boradagi ishlarni tashkil etishda mahalla fuqarolar yig‘inlari, uchastka-profilaktika nozirlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.</p>		
3.	Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa vazirlik va idoralar tomonidan tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, sport hamda ilmiy-innovatsion tanlovlarda talabalarning qiziqishiga hamda iqtidoriga ko‘ra ishtirokini ta’minalash.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
4.	“Talabalarning ma’naviy-axloqiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari” mavzusida seminar va davra suhbatlari o‘tkazish	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, OTM profilaktika inspektori, psixolog, fakultet dekanning Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi.
5.	Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy muhitni takomillashtirish maqsadida muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish hamda ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, ularning ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishlarini ta’minalash	Reja asosida Har chorakda	Tyutor
6.	Talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko‘mak berish va rag‘batlantirishga tavsiya etish, ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta’lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag‘batlantirilishini tashkil etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor

7.	<p>OTMdA tahlil olayotgan chin yetimlar, boquvchisini yo‘qotganlar, nogironlar, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalar farzandlari to‘g‘risida ma‘lumotlar bazasini shakllantirish :</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— moddiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha fakultet dekaniga taklif kiritish;</li> <li>— shuningdek, ularning ijtimoiy muhofazasi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;</li> <li>— nogironligi bo‘lgan, yetim, ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va kam ta‘minlangan talabalarga alohida g‘amxo‘rlik qilish, ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma‘naviy va psixologik yordam berish choralarini ko‘rish;</li> <li>— kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda turli ko‘ngilochar joylarga hamda konsertlarga, teatr tomoshalariga tashrifini ta‘minlash.</li> </ul>	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, psixolog, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.	
8.	Talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko‘rsatish, ularni kelgusida ilmiy faoliyat olib borishlariga tajribali ustozlar va professorlar ishtirokida yaqindan yordam berish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor	
9.	Yoshlar o‘rtasida erta nikoh va oilaviy ajralishlarning oldini olish maqsadida targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib borish.	Har ikki oyda	Tyutor, psixolog, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, fakultet dekanning Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi.	
10.	Iste’dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va boshqa nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor	
11.	2023 yilda “Yangi uyg‘onish davri – kitob va kutubxonadan boshlanadi” shiori ostida oliy ta‘lim muassasasida kitobxonlik anjumanlari va yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazib borish	aprel-may oylarida	Tyutor, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.	

12.	Talabalarning o‘quv motivlari, shaxsiy yo‘nalganligi, qadriyatlar tizimini o‘rganish. Bunda: -guruh talabalariga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish; -pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy ta’sirga ega mashg‘ulotlar o‘tkazish.	Har chorakda	Tyutor, psixolog.
13.	Talabalarni turli ilmiy tadbirlar: konferensiylar, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini tashkillashtirish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
14.	OTM psixologi bilan hamkorlikda Talabalar turar joylarida istiqomat qilayotgan talabalar bilan psixologik-psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, psixolog.
15.	“Teatr – tarbiya maskani”, “Vatan bo‘ylab sayohat” shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, yoshlar orasida keng targ‘ib etish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida “Ajodolar xotirasi yodimizda” (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) “O‘zbekiston — jannatmakon diyor”, “Baxtlar vodiysi”, “Biz nechun sevamiz, O‘zbekistonni”, “Bunyodkorlik yo‘lida” mavzularida professor-o‘qituvchilar va talabarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.
16.	Talabalarning to‘garak va klublarga a’zoligini maksimal darajada ta’minlash va ularning ushbu to‘garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
17.	Ta’lim jarayonida talabalarning darslari, davomati va dars sifatining monitoringini olib borish: — o‘quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishslash; - talabaga tavsifnomा va akademik ta’til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma’lumotlardan to‘la foydalanish; — talabaning darslariga qatnashishi, o‘zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo‘yicha xulosa berish; — o‘zlashtirish ko‘rsatgichi past hamda tarbiyasi og‘ir talabalar bilan tizimli ishlarni olib borish;	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, fakultet dekani.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>— Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bilan birgalikda talaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish;</li> <li>— ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya sifatini o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;</li> <li>— talabalarning darslarga qatnashishlari bo‘yicha kunlik davomatini yuritib borish, ular tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg‘ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish;</li> <li>— talabalarning darslarni o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilib borish, innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’minlashga hamda ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishga ko‘maklashish;</li> <li>— talaba haqida fakultet dekanatiga tushayotgan ma’lumot asosida guruh sardori bilan birgalikda professor-o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, o‘zlashtirishi past talabaga yordamlashib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan talabani unga biriktirish, qo‘srimcha darslar va maslahatlar tashkil etish, fanlar bo‘yicha akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda topshirishini nazorat qilish.</li> </ul>		
18.	Talabalarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
19.	Talaba yoshlar uchun kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasi asosida badiiy asarlar muhokamalari va davra suhbatlarini tashkil etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.
20.	Iste’dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to‘garaklar, innovatsion startaplarga va klublarga jalb etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor

21.	<b>“Sport bizni birlashtiradi”, “Sport – salomatlik garovi”, “Jismoniy tarbiya va madaniyat zamonaviy talaba uchun assosiy mezon”</b> shiori ostida chelenjlarni tashkil etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, OTM sport klubi.
22.	Talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan ishlar natijadorligini oshirish (bunda quyidagi yo‘nalishlarda “Ma’naviyat-ma’rifat va madaniyat oyliklari”ni o‘tkazish tavsiya etiladi): sentyabr – “Mehr-muruvvat oyligi”, oktyabr – “Ustoz va murabbiylar oyligi”, noyabr – “Atrof-muhit muhofazasi oyligi”, dekabr – “Huquqiy savodxonlik va madaniyat oyligi”, yanvar – “Axborot xavfsizligi oyligi”, fevral – “Sog‘lom turmush madaniyati oyligi”, mart – “Ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish oyligi”, aprel – “Tejamkorlik oyligi”, may – “Kitobxonlik va mutolaa oyligi”, iyun – “Yoshlar bunyodkorligi oyligi”.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, Soha prorektorlari, fakultet dekani, TTJ direksiysi direktori va tarbiyachi-pedagoglar, OTM psixolog, OTMdagi jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi.
23.	Talabalar o‘rtasida <b>“Ogohlikni men qanday his etaman?”</b> mavzusida ijodiy ishlar tanlovi o‘tkazish.	Reja asosida	Tyutor, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, Yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari.
24.	Milliy o‘yinlar bo‘yicha <b>“Milliy o‘yinlar – salomatlik garovi”</b> shiori ostida <b>kurash</b> bo‘yicha “Rektor kubogi” musobaqalarida talabalar ishtirokini tashkil etish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor
25.	Talabalar ishtirokida <b>“Og‘usiz hayot sari”</b> mavzusida ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazish.	2023/2024 o‘quv yili davomida	Tyutor, OTM profilaktika inspektori, psixolog.

26.	Talabalar o'rtasida “Jaholatga qarshi ma'rifat” mavzus ida ijodiy ishlar tanlovini o'tkazish	2023/2024 o'quv yili davomida	Tyutor, OTM profilaktika inspektori.
27.	Talabalar turar joylarida “Biz “ommaviy madaniyat”ga qarshimiz”, “Vatanimiz ravnaqi yo'lida xalqimizga kamarbastamiz”, “Diniy bag'rikenglik otabobolarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyat” kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazish.	2023/2024 o'quv yili davomida	Tyutor, OTM profilaktika inspektori, psixolog.
28.	“Talabalar teatr studiyalari, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Ilhom mukofoti”, “Islohotlar bilimdoni”, “Yil talabasi”, ”Zakovat” intellektual o'yinlari kabi ommaviy tanlovlarni talabalar o'rtasida keng targ'ib qilish hamda ishtirokini ta'minlash.	2023/2024 o'quv yili davomida	Tyutor
29.	Pedagogik an'ana va qadriyatlarning uзвиyligini ta'minlash, “Ustoz-shogird” tizimi asosidagi ishlarni kuchaytirish, boy kasbiy va hayotiy tajribaga ega professor-o'qituvchilar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, “Ustoz-shogird” chiqishlari, mahorat darslarini tashkil etish	2023/2024 o'quv yili davomida	Tyutor
30.	Talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarda besh muhim tashabbus doirasidagi klub, to'garak va tanlovlarga jalg qilish, ularning ta'lim muassasasi hayotidagi ijtimoiy - siyosiy va madaniy tadbirlardagi ishtirokini ta'minlash.	2023/2024 o'quv yili davomida	Tyutor

*Izoh:*

1. Ushbu rejaga OTM xususiyatidan kelib chiqqan holda 35 % gacha qo'shimcha va o'zgartirish kiritish mumkin.
2. Tadbirlar muddatlari nisbiy bo'lib, jarayondagi vaziyatga qarab o'zgartirish kiritib boriladi.
3. OTM rejasini tayyorlash jarayonida talabalar o'rtasida mazkur masalaga doir ijtimoiy so'rovnama o'tkazish va uning natijasidan foydalanish tavsiya etiladi.
4. “5 muhim tashabbus bo'yicha reja asosida” deb yozilgan bandlardagi tadbirlar 5 muhim tashabbus dasturi aks etgan bo'lishi lozim.
5. Ushbu namunaviy rejaga kirmay qolgan masalalar OTM tomonidan kiritilishi va to'ldirilishi so'raladi.
6. OTMdagi jamoat tashkilotlari o'z rejalarini mazkur namunaviy reja bilan muvofiqlashtirishlari tavsiya etiladi.
7. Mazkur rejani amalga oshirishda tyutorlar OTMdagi jamoat tashkilotlari, tegishli fakultet va kafedralar mas'ullari bilan hamkorlik qiladi.

Vazirlikning 2023-yil "24" 18 dagi  
396-son buyrug'iga 7-ilova

**Oliy ta'lif muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy soha vakillari (Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rribbosari, tyutor hamda tarbiyachi pedagog) faoliyatini o'rganish bo'yicha**

**REJA-JADVAL**

Nº	Oliy ta'lif muassasalari joylashgan hudud nomi	O'rganish o'tkazilish vaqtি	Vazirlikdan mas'ullar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9-13 oktyabr	R. Xudayberganov Sh. Raxmonov N. Shokirov
2.	Xorazm viloyati		
3.	Buxoro viloyati	13-16-noyabr	F. Farhodov
4.	Navoiy viloyati		A. Mahmudov N. Shokirov
5.	Qashqadaryo viloyati	11-15-dekabr	L. Mingishov
6.	Surxondaryo viloyati		M. Boysariev S. Mahmudov N. Shokirov
7.	Samarqand viloyati	15-17-yanvar	S. Sanaqulov O. O'rozaliev N. Bektemirov N. Shokirov
8.	Jizzax viloyati	12-14-fevral	O.Ummatov
9.	Sirdaryo viloyati		N. Shokirov
10.	Namangan viloyati	11-15-mart	X. Eshov
11.	Andijon viloyati		I. Choriev
12.	Farg'onona viloyati		M. Turabov N. Shokirov
13.	Toshkent viloyati	8-11-aprel	R. Xudayberganov A. Islamov Sh. Raxmonov N. Shokirov
14.	Toshkent shahri	6-20-may	N. Kasimov F. Farhodov O. Ummatov M. Boysariev N. Shokirov

## “Birinchi kurs maktabi” tadbirlarini o‘tkazishga qaratilgan NAMUNAVIY DASTUR

**O‘tkazish joyi:** (ta’lim muassasasi nomi)

**Ishtirokchilar:** 1-kurs bakalavriat bosqichi talabalar

**O‘tkazish vaqtি:** 2-10-oktyabr 2023-yil

**Maqsad:**

1. Talabalikka qabul qilinganlarni oliy ta’lim muassasasining infratuzilmasi va asosiy faoliyat yo‘nalishlari bilan tanishtirish.

2. Ishtirokchilarda ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlardagi faoliyati xususida umumo‘quv ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

**Natijalar:** Trening ishtirokchilarining umumo‘quv ko‘nikma va malakalar natijasida talabalar:

1. Ilmiy adabiyotlarni o‘qish va axborotni belgilash malakalariga ega bo‘ladilar.

2. Mustaqil faoliyat natijalarini: reja, konspekt, asosli esse, referatlarni belgilangan talabga muvofiq **yozma** taqdim etishning yo‘l va vositalariga ega bo‘ladilar.

3. Mustaqil faoliyat natijalarini **og‘zaki** taqdim etish: ma’ruza va so‘zga chiqish vaqtida shu bilan birga o‘quv topshiriqlarini bajarish natijalari bo‘yicha taqdimotda, o‘zini ishonchli tutish, turli ko‘rgazma vositalardan foydalanishning yo‘l va vositalariga ega bo‘ladilar.

4. **Tahliliy axborotlarni ko‘rgazmali taqdim etish:** axborotni o‘rganilayotgan tushunchalar (yuzaga kelish, hodisa, mavzu va h.k) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish, muammoni yechishni rejalashtirishda: keyslar, klaster, toiflash va konseptual jadval boshqa shu kabi kabi vositalardan foydalanish orqali o‘quv topshiriqlarni bajarishning yo‘l va vositalariga ega bo‘ladilar.

5. O‘quv loyihaviy faoliyat, keysda bayon etilgan amaliy vaziyatni **tahsil qilish va yechish** malakalariga ega bo‘ladilar.

6. O‘zlarining nuqtayi nazarlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro fikrlarini tizimli bayon etish, suhbatga kirishish, savollarni shakllantirish javoblarni tinglash, qoidaga rioya qilgan holda **bahs** olib borish, bahs-munozarada, stol atrofida muzokara yuritishga o‘rganadilar.

7. **Guruhi o‘zaro harakat qilish** – o‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha guruhi faoliyatni jamoaviy rejalashtirish, hamkorlikda ishlash, muloqotga kirishish, o‘zaro harakat, yordam va baholashga tayyorliklarini namoyon qiladilar.

O‘qishning birinchi kuni	
1-dars	<i>Ochilish marosimi</i>
2-dars	<p>Fakultet dekani, uning o‘rnbosarlari hamda fakultet kafedralari bilan tanishuv.</p> <p>Oliy ta’lim muassasasi sayti (platformasi)ga sayohat.</p> <p>Oliy ta’lim muassasasi Axborot-resurs markazi saytiga tashrif.</p> <p>Oliy ta’lim muassasasi bo‘ylab, ayniqsa, uning muhim va diqqatga sazovor joylariga videosayohat.</p> <p>Oliy ta’lim muassasasining jamoat ishlari bilan shug‘ullanuvchi vakillari bilan uchrashuv (Yoshlar ittifoqi, Kasaba uyushmasi va boshqalar).</p> <p>(jadval asosida).</p>

### O‘qishning ikkinchi kuni

1-dars	Treningga kirish. Talabalarni oliy ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish.
2-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> Yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi faoliyati va talabalarga beriladigan imtiyozlari.
3-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> Oliy ta’lim muassasasining tuzilmasi: rektorat, fakultet, dekanat, kafedra nima?

### O‘qishning uchinchi kuni

1-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limiy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Talabalarning bilimini baholash tizimi haqida.
2-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, jumladan oliygoh rasmiy sahifalariga a’zo bo‘lish tartibi to‘g‘risida talabalarda ko‘nikmalarni shakllantirish
3-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> Virtual murojaatlarni amalga oshirish mexanizmi haqida tushunchalar berish

*Auditoriyadan tashqari mustaqil ishslash uchun topshiriq:*

Noqonuniy saytlar va ijtimoiy tarmoqlar ta’siriga tushishning salbiy oqibatlari xususida esse yozish

### O‘qishning to‘rtinchi kuni

1-dars	Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish, Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlarga infografik yondashuvlarni (ko‘rgazmali vositalar, video roliklar orqali) namoyish etish
2-dars	<i>Kichik ma’ruza:</i> 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida OTMda amalga oshirilgan ishlar xususida

3-dars	<i>Kichik ma'ruza:</i> “Saxovat va ko'mak” loyihasi doirasida oliygoh volontyor yoshlaring faoliyatini
<i>Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlash uchun topshiriq:</i>	
“Men nechun sevaman O'zbekistonni” shiori ostida insho, qo'shiq, rasm, videorolik tayyorlash va taqdimot qilish	

### **O'qishning beshinchi kuni**

1-dars	Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash davr talabi: kredit modul tizimini qo'llash misolida
2-dars	<i>Kichik ma'ruza:</i> Axborot texnologiyalaridan foydalanishda samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish mexanizmlari
3-dars	<i>Kichik ma'ruza:</i> Kredit ta'lim tizimida baholash mexanikasi
<i>Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlash uchun topshiriq:</i>	
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kredit ta'lim tizimini qo'llash bo'yicha yetakchi oliygoхlar tajribasini mustaqil o'r ganish (tavsiya etilayotgan adabiyotlar)</li> <li>2. Talabalarning kredit ta'lim tizimi uchun elektron platformadan ro'yxatdan o'tish jarayonini tashkil qilish</li> </ol>	

### **O'qishning oltinchi kuni**

1-dars	“Noqonuniy saytlar va ijtimoiy tarmoqlar ta'siriga tushishning salbiy oqibatlari xususida esselarning taqdimoti. Guruhda o'quv loyihalarining taqdimoti
2-3-dars	Talabalar bilan mustaqillikka erishilgandan keyingi yillarda amalga oshirilgan eng yirik islohotlar yuzasidan davra suhbat. Treningning yopilish marosimi

#### **Izoh:**

1. Oliy ta'lim muassasasi xususiyatidan kelib chiqqan holda mazkur dasturga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Kiritilayotgan o'zgartirishlar natijadorlik nuqtayi nazaridan amaliy ahamiyatga ega bo'lishi va talabalarga foydali ma'lumotlar berishga qaratilgan bo'lishi lozim.
2. “Birinchi kurs maktabi” bo'yicha dars mashg'ulotlari vaqtini belgilash oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori zimmasiga yuklanadi.
3. Aynan mana shu tadbir jarayonida talabalar orasidan iqtidorlilar, ilmiy ishga qiziquvchilar, san'at va sport yo'nalishida natijaga erishganlar, jamoatchilik ishlari faollik ko'rsatadiganlar va boshqa o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganlari saralanib, dastlabki ro'yxatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.
4. Shuningdek, birinchi bosqich talabalariga OTMni tanishtirish ishlari yuqori bosqichdagi ko'ngilli talabalarini jalb etish tavsiya etiladi.